

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

O‘RINOV RUSTAMBEK YOQUBJONOVICH

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA INTELLEKTUAL KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(pedagogika fanlari misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

О'rinov Rustambek Yoqubjonovich

Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (pedagogika fanlari misolida).....3

Уринов Рустамбек Ёкубжонович

Усовершенствование методики развития интеллектуальной компетентности будущих педагогов (на примере педагогических наук).....27

Urinov Rustambek Yoqubjonovich

Improvement of the methodology for developing intellectual competence in future teachers (on the example of pedagogical sciences).....55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....60

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

O‘RINOV RUSTAMBEK YOQUBJONOVICH

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA INTELLEKTUAL KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(pedagogika fanlari misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Ped9483 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasi (www.fdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuychiyeva Inoyatxon Ibragimovna
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), professor

Rasmiy opponentlar:

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Siddiqov Ilyosjon Bahromovich
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "17" oktyabr kuni soat 19⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, Gender tenglik tadqiqotlar markazi, 1-qavat majlislar zali. Tel: (+99873) 244-44-02; faks: (+99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (580 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, ARM binosi. Tel: (+99873) 244-44-02, e-mail: fardu_info@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "4" oktyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "4" oktyabr da 34 - raqamli reyestr bayonnomasi).



B.Sh.Shermuhhammadov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

B.X.Baydjanov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, p.f.b.f.d (PhD), dotsent

B.Q.Qurbonova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo‘lajak o‘qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish, ularning kasbiy salohiyatini oshirish hamda yuqori malakali, raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash dolzarb masala sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur yo‘nalishda ilg‘or ta’lim tizimiga ega bo‘lgan mamlakatlar – AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarning ilmiy-tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, bo‘lajak o‘qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini aniqlash, shuningdek, kreativ va neyropedagogik yondashuvlar asosida ijtimoiy-emotsional intellektni shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab olingan. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida intellektual kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, Ta’lim jarayonida interfaol texnologiyalar va raqamli vositalar ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va reflektiv tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, pedagog kadrlarni tayyorlashga qaratilgan xalqaro dasturlarda talabalarning intellektual kompetentligini rivojlantirishni “fikriy amaliyot” (reflective practitioner) tamoyiliga asoslangan holda tashkil etish, ijodiy va ratsional yondashuv uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda dunyo bo‘ylab ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida, ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlarga asoslangan ilg‘or modellarning joriy etilishi intellektual kompetentligini shakllantirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Bu borada nafaqat nazariy bilimlarni mukammal egallash, balki ularni real ta’limiy muammolarni hal etishga qaratilgan faoliyatda qo‘llash, mantiqiy fikrlash, analitik yondashuv va reflektiv tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Jahonning ilg‘or ta’lim platformalari – Khan Academy, EDX (Garvard universiteti), SCORM tizimi va SMOOS kurslari – mustaqil o‘rganishga asoslangan, ta’lim oluvchining kognitiv va intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmlarni taklif etmoqda. Ushbu tizimlar orqali o‘quv materiallarini interfaol tarzda o‘zlashtirish, fikrlash jarayonlarini faollashtirish va o‘z-o‘zini baholash asosida mustaqil ta’lim olib borish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, o‘z navbatida, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy imijini shakllantirishda va raqobatbardosh pedagog shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston – 2030 strategiyasida “Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish”¹ orqali innovatsion fikrlovchi, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan ustuvor vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual faolligini jadallashtirish asosida kasbiy ijodkorligini rivojlantirish, o‘quv-bilish faoliyatining

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida” // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2023. – № 06/23/158/1234.

izlanishli-tadqiqotchilik kompetensiyasi bilan uyg'unligini ta'minlashning aksiologik asoslarini takomillashtirish dolzarblik kasb etmoqda. Buning uchun esa, "talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayoniga kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish"²ga qaratilgan ilmiy-intellektual faollikka yo'naltiruvchi tizimni yaratish zaruriyati yuzaga chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018-yil 10-oktyabrdagi 816-son "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida"gi, 2019-yil 13-maydagi 394-son "Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda ularning intellektual kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur masalaga oid konseptual, metodologik va amaliy asoslar qator mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Jumladan, ta'lim jarayonida hamkorlik pedagogikasi, tarixiy tafakkurni shakllantirish, bo'lajak o'qituvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar Sh.Abdullayeva, B.Xodjayev, Sh.Allamova tomonidan ishlab chiqilgan; intellektual kompetentlikni psixologik asosda shakllantirish muammosi V.Karimova, D.Sobirova, G'.Shoumarov, E.G'oziyevlarning ilmiy ishlari asosida

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2019. – № 06/19/5847/3887.

ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar, shaxsiy-intellektual o'sish, kasbiy refleksiya va motivatsion omillar doirasida tahlil qilingan; pedagogik texnologiyalarni modernizatsiya qilish, kasbiy tayyorgarlikni optimallashtirish, innovatsion metodikalar asosida ta'lim oluvchilarning kognitiv, metakognitiv va reflektiv salohiyatini shakllantirishga qaratilgan izlanishlar B.Adizov, U.Aleuov, J.Bazarbayev, D.Davronova, N.Dilova, K.Inoqov, Z.Kurbaniyazova, N.Mahmudova, O.Musurmonova, O.Qo'ysinov, N.Nagmetova, A.Ortiqov, M.Pazilova, S.Saytbekova, A.Tilegenov, X.Tojiboyeva va M.Quronovlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari tomonidan intellekt, intellektual qobiliyatlar va kompetentlikning psixologik-pedagogik jihatlarini keng o'rganilgan. Ijtimoiy muhit va kommunikativ omillar masalasi L.Vigotskiy, tafakkur va ong faoliyati psixologiyasi S.Rubinshteyn tomonidan tahlil qilingan. Kognitiv salohiyat, kasbiy kompetensiya va emotsional barqarorlik masalalari A.Rean, D.Ushakov, A.Bodalev, M.Bobneva, Y.Sautina tomonidan asoslangan. Intellektual qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishga oid zamonaviy yondashuvlar A.Savenkov va T.Savenkova tomonidan ishlab chiqilgan. Ijtimoiy intellekt, reflektiv tafakkur va kommunikativ kompetensiyalar bo'yicha O.Gataulina, V.Kunitsina, Y.Mixaylova, A.Fedorenko, A.Yujaninova tadqiqotlar olib borgan. E.Marchuk intellektual salohiyatni rivojlantirishda psixologik omillarni tahlil qilgan, Y.Kostrova raqamli muhitda kompetensiya shakllanishini, L.Aryayeva esa kognitiv faoliyat asosida tafakkur salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq qilgan.

Xorijiy olimlar intellektual kompetentlikni ijtimoiy-emotsional xususiyatlar bilan integratsiyada o'rganib, bu borada J.Bradberry, T.Greaves, D.Goleman, P.Salovey va J.Mayer muhim nazariy asoslar ishlab chiqqan. Tafakkur strukturalari, divergent fikrlash va kognitiv jarayonlar asosidagi baholash mezonlari D.Guilford tomonidan ishlab chiqilgan. Shaxsiy faollik, reflektiv fikrlash va qaror qabul qilish jihatlarini N.Meyjs, S.Merfi, J.Pirozzolo tomonidan tahlil qilingan. Intellektual kompetentlikning kasbiy muvaffaqiyat va ijtimoiylashuv bilan bog'liqligi A.Razai, R.Riggio, L.Darling-Hammond, T.Bush, K.Leithwood tadqiqotlarida yoritilgan. E.Thorndike va F.Chapin ijtimoiy intellekt nazariyasini asoslab bergan.

Biroq bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi, komponentlari va omillarini aniqlashtirish, tez o'zgaruvchan shart-sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashuvni ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik tizimi va texnologiyasini takomillashtirishga doir maxsus ilmiy izlanishlarning kamligi mazkur yo'nalishdagi izlanishlarni olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Pedagogika fanlarini o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar va rivojlanish tendensiyalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni va metodologik asoslarini tadqiq etish;

bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning kreativ va neyropedagogik asoslarini tadqiq etish hamda pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

“Kreativ pedagogika” va “Neyropedagogika” fanlari doirasida bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarni aniqlashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish modelini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti: bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni tanlab olinib tajriba-sinov ishlarida Farg'ona davlat universiteti, Guliston davlat universiteti va Buxoro davlat universitetidan 494 nafar talabalar respondent sifatida ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmeti: bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish metodikasini pedagogika fanlari misolida takomillashtirishning mazmuni, shakl, vosita va metodlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari: tadqiqotda nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish); diagnostik (anketa-so'rovlar, suhbat, so'rovnoma, test o'tkazish, kuzatish), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish); pedagogik tajriba-sinov va matematik statistika (ma'lumotlarga statistik ishlov berish, natijalarni grafik tasvirlash va boshqa) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari (o'quv motivlari, bilishga qiziqish va ehtiyoj, refleksiya) intellektual faollikning maqsad qo'yish, qaror qabul qilish, korreksiya bosqichlarining qayta ta'sir etish darajasi mutanosibligini hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

“Kreativ pedagogika” va “Neyropedagogika” fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning tarkibiy asoslari (gnostik, loyihaviy, prognostik) o'quv-bilish faoliyatni rivojlantirishning ijtimoiy moslashuv bilan bevosita aloqadorligini empirik baholash orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari kreativ va neyropedagogik yondashuvning attraktivlik (o'z-o'ziga ijobiy munosabat), tolerantlik, assertivlik (o'z imkoniyatlariga ishonch) komponentlarini interfaol hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayonlari tuzilmasi bilan dinamik barqarorligi asosida aniqlashtirilgan;

“Kreativ pedagogika” va “Neyropedagogika” fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi modul-kredit tizimi talablarini (subyektivlik, mustaqillik, amaliy yo'naltirilganlik) pedagogik fanlarni o'qitish jarayonlariga adaptiv qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy o'quv yurt talabalari uchun “Umumiy pedagogika” darsligi yaratilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

“Intellektual pedagog” platformasining YouTube va Telegram kanallari tashkil etildi;

“Yosh daholar” nomli to'garak dasturi va dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish jarayonida tatbiq etiladigan yondashuv va metodlarning ilmiy-nazariy jihatdan asoslanganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida aniqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarni vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoniga doir nazariy-fundamental bilimlarning kengaytirilganligi, interaktiv metodlardan foydalanish pedagogik mohiyati aniqlanganligi va empirik jihatdan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, undan bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlashtirilganligi, uning tarkibiy asoslari empirik baholash orqali takomillashtirilganligi, didaktik imkoniyatlari aniqlashtirilganligi, “Kreativ pedagogika” va “Neyropedagogika” fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi takomillashtirilganligi hamda bu boradagi va taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari (o'quv motivlari, bilishga qiziqish va ehtiyoj, refleksiya) intellektual faollikning maqsad qo'yish, qaror qabul qilish, korreksiya bosqichlarining qayta ta'sir etish darajasi mutanosibligini hisobga olish asosida aniqlashtirishga oid takliflar va tavsiyalar O'zbekiston milliy universitetida bajarilgan PZ-20170913120 raqamli “Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari” mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 2-maydagi 11-05-2823/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish imkoni kengaytirilgan;

“Kreativ pedagogika” va “Neyropedagogika” fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning tarkibiy asoslari (gnostik, loyihaviy, prognostik) o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy moslashuv bilan bevosita aloqadorligini empirik baholash orqali takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar O'zbekiston milliy universitetida bajarilgan PZ-20170913120 raqamli “Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari” mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika

universitetining 2025-yil 2-maydagi 11-05-2823/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning tarkibiy asoslari kengaygan;

bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini kreativ va neyropedagogik yondashuvning attraktivlik (o'z-o'ziga ijobiy munosabat), tolerantlik, assertivlik (o'z imkoniyatlariga ishonch) komponentlarini interfaol hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayonlari tuzilmasi bilan dinamik barqarorligi asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar asosida "Umumiy pedagogika" nomli darslik yaratilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug'i asosida berilgan 180676-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va pedagogik asoslarini tadqiq etishga sharoit yaratilgan;

"Kreativ pedagogika" va "Neyropedagogika" fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi modul-kredit tizimi talablarini (subyektivlik, mustaqillik, amaliy yo'naltirilganlik) pedagogik fanlarni o'qitish jarayonlariga adaptiv qo'llash asosida takomillashtirishga oid takliflar O'zbekiston milliy universitetida bajarilgan PZ-20170913120 raqamli "Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari" mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 2-maydagi 11-05-2823/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish modelini takomillashtirish samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy-uslubiy ishlar e'lon qilingan bo'lib, jumladan 1 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 150 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo‘lajak o‘qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning zarurati va bu jarayonda ta‘limning imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Pedagogikadan atamalar lug‘atida “kompetensiya – u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik” deb ta‘rif berilgan bo‘lsa, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida “kompetensiya – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba” deb ta‘riflanadi.

Tadqiqotlarimiz asosida kompetensiya so‘zining quyidagi ma‘nolarini farqladik: aniq vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay olish qobiliyati; kasbiy standart tavsifiga mosligi; bilim, ko‘nikma va malakalar (BKM), qobiliyat, motiv, shaxs, kommunikativ sifatlar va boshqa tushunchalarning umumiy yig‘indisi; lavozim vazifalariga mas‘ulligi va vakolati; kasbiy muhim sifatlar tashkilotchilik konteksti bilan birgalikda kasbiy tajribani chuqur anglanishi; shaxsiy xususiyat, individuallik; samarali ishlab chiqarish faoliyati mezonlari; ijodkorlik; aniq tashkilotlarda ishlab chiqarish vazifalari. Demak, kompetensiya bu – bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar, shaxsiy sifatlar, maqsadli vaziyatlarning umumiy uyg‘unligi hisoblanadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, “intellekt, lotincha “intellectus” so‘zidan olingan bo‘lib, u odatda “aql-idrok”, “anglash”, “tushunish”, “fahmlash” degan ma‘nolarni anglatadi”. Ushbu sifatni insonda yuksak darajada namoyon bo‘lishi, aql-idroki, fahm-farosati, ong-shuurining yuksak darajada ishlashi bilan belgilanadi. Boshqa bir ma‘nosiga ko‘ra, “insonni boshqa jonzotlardan ajratib turuvchi va uning majburiyatini belgilovchi “fahm-farosat, o‘ylash, anglash malakasi”ni anglatuvchi so‘z ham “aql” deb ataladi. Demak, intellektuallik va ijodiylik insonning aqliy salohiyati, yuksak fikrlash tarzi, dunyoqarashini ko‘rsatib beruvchi darajasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida “Intellekt” (lot. intellectus – bilish, tushunish, idrok qilish) – bu insonning aqliy qobiliyati, voqelikni ongda aks ettirish, fikrlash, o‘rganish, ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish, muammolarni hal qilish va oqilona qaror qabul qilish layoqati deb ta‘kidlangan. Intellekt tarkibiga idrok, xotira, tafakkur va tushuncha kabi psixik jarayonlar kiradi. Uning rivojlanishi tug‘ma salohiyat, miya faoliyati va ijtimoiy muhit omillariga bog‘liq. Intellektual salohiyat inson faoliyati natijalari hamda psixologik testlar orqali aniqlanadi. Intellektual kompetentlik esa aqliy salohiyat, bilim, tanqidiy fikrlash va ilmiy asosda qaror qabul qilish qobiliyatining yuksak darajasini ifodalaydi.

Zamonaviy pedagogik va psixologik adabiyotlarda intellekt tushunchasi bir yoʻnalishli aqliy qobiliyat sifatida emas, balki koʻp qirrali va funksional tizim sifatida talqin qilinmoqda. Xususan, Hovard Gardnerning koʻp qirrali intellekt nazariyasida inson intellekti turli ijtimoiy va individual faoliyat sohalarida namoyon boʻladigan alohida salohiyatlar tizimi sifatida baholanadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

H. Gardner tomonidan ishlab chiqilgan koʻp qirrali intellekt turlari tasnifi

Intellekt turi	Tavsifi
Lingvistik intellekt	Til vositasida muloqot qilish, ogʻzaki va yozma nutq orqali fikrni aniq ifodalash qobiliyati.
Mantiqiy-matematik intellekt	Mantiqiy tahlil, muammolarni yechish, statistik va algoritmik fikrlash salohiyati.
Vizual-fazoviy intellekt	Obrazlar, shakllar va makon bilan ishlash, tasviriy va loyihalash faoliyati.
Musiqqa intellekti	Ohang, ritm, tovushlarni idrok etish va ular orqali ifoda qilish qobiliyati.
Shaxslararo (interpersonal)	Boshqalar bilan samarali muloqot qilish, empatiya, jamoaviy muomala koʻnikmalari.
Shaxsiy (intrapersonal)	Oʻzini anglash, refleksiya, ichki his-tuygʻularni boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish.
Tabiiy intellekt	Tabiiy hodisalarni tushunish, ekologik ong va atrof-muhit bilan uygʻunlikda fikrlash.

Professor V.Tarasovning taʼkidlashicha, “intellekt individning maʼlum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tuzilishidan iboratdir”. Oksford universitetining professori N.Bostromning fikricha, “intellekt – insoniyat uchun mavjud boʻlgan muammolarni yechishga qodir aql”dir. Intellektning mohiyati va rivojini tushuntirish boʻyicha turli falsafiy oqimlar hukm surib, ular maʼlum bir ilmiy qarashlar, fikrlar, mulohazalar negizida birlashgan hamda xuddi shu yondashuv qurshovida munozaralar, bahslar boʻlgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda intellektual kompetentlikka quyidagicha mualliflik tarifini ishlab chiqdik:

Intellektual kompetensiya – bu turli darajadagi murakkablikdagi muammolarni qoʻyish va samarali hal qilish imkoniyatini taʼminlaydigan aqliy sifat, shaxsiy tajribani faollashtirish asosida kasbiy muammolarni aql va idrok asosida hal qilish uchun oʻz intellektual qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlarini safarbar qilishga qaratilgan bilim va koʻnikmalar majmuasi hisoblanadi.

Tadqiqotning ushbu qismida boʻlajak oʻqituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishga oid maʼlumotlarning anʼanaviy taʼlim mazmuni integratsiyasiga doir pedagogik shart-sharoitlari ham oʻrganilib chiqildi.

Unda boʻlajak oʻqituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning oʻquv rejasidagi fanlar bloklari ham oʻrganilib, shu asosda intellektual faoliyat uchun tayyorlangan algoritmik bosqichlardagi maʼlumotlar anʼanaviy taʼlim mazmuniga integratsiyalanadi va ular quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1) Intellekt terminining mazmun-mohiyatini yoritib berishga oid maʼlumotlarni toʻplash bosqichi. Mazkur tushunchalarni psixologik asoslarda qoʻllab-quvvatlovchi omillar aniqlab olindi. Shuningdek, ularga aql, tafakkur, ong, ilm, bilim, idrok, layoqat, sezgi (intuitsiya), qobiliyat, fikrlash doirasi va mahorat kabi

psixologik-falsafiy kategoriyalarning mazmun va mohiyati haqida ma'lumotlar ham kiritildi;

2) Intellektual resursni tayyorlash bosqichida uning mazmuni bilan birga fikrlash, qiziqish, tahlil qilish va idrok etishga moyillik kabi psixologik-pedagogik omillar asosida bo'lajak o'qituvchilarning intellektual faolligi va motivatsiyasi aniqlashtiriladi. Jarayon samaradorligi uchun pedagogik sharoitlar yaratilishi ustuvor deb belgilandi hamda o'quv rejasidagi fanlar tahlil qilinib, tegishli yondashuvlar ilmiy-metodik asosda belgilandi;

3) Intellektual salohiyatni shakllantirish bosqichida asosiy e'tibor zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga qaratildi. Didaktik materiallar va kreativ axborot resurslari an'anaviy ta'lim mazmuni bilan integratsiyalandi. Bu jarayon, asosan, majburiy fanlar doirasida amalga oshirildi. Bosqich samaradorligini oshirish maqsadida psixologik qo'llab-quvvatlash ta'minlandi, bunda adaptivlik, ijodkorlik, innovatsion yondashuvlar va ichki motivatsiya kabi omillar didaktik asos sifatida namoyon bo'ldi;

4) Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual kompetentligini rivojlantirishda intellektual faoliyatni shakllantirish bosqichi asosiy tarkibiy bo'g'in hisoblanadi. Bu bosqichda an'anaviy materiallarga tayangan holda mantiqiy uzluksizlikni ta'minlovchi savollar tizimi hamda mazmuni to'liq anglashga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlar didaktik asos sifatida ishlab chiqildi;

5) Intellektual faoliyatni tashkil etish bosqichida zarur pedagogik shart-sharoitlarni shakllantirish, metodik yo'nalishga ega fanlarni o'zlashtirish jarayoni hamda pedagogik amaliyot davomida olib borilgan mashg'ulotlar muhim omillar sifatida belgilandi. Shuningdek, "Yosh daholar" to'garagi faoliyati bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy platforma vazifasini bajardi;

6) Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual ko'nikmalarini shakllantirish bosqichi.

Xulosa qilganda, bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning ko'p qirrali dinamik tizimga egaligi ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi metodik ta'minotni innovatsiyalashtirilishini talab etadi.

Dissertatsiyaning **"Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy-metodik tizimi"** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning kreativ va neyropedagogik mazmuni, modeli va ta'lim texnologiyasi tahlil qilingan.


O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlanib, taqdim etilgan 60110100 – Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik daraja beruvchi namunaviy o'quv rejaning ixtisoslik fanlari blokida joylashgan "Kreativ pedagogika" va "Neyropedagogika" fanlari tadqiqot ishimiz uchun intellektual kompetentlikni rivojlantirishdagi asosiy fan hisoblandi.

"Kreativ pedagogika" va "Neyropedagogika" fanlarini o'zlashtirish davomida bo'lajak o'qituvchilarda har qanday faoliyatga nisbatan kreativ yondashuv va yangicha fikrlash ko'nikmalari izchil tarzda rivojlanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayoni barcha bosqichdagi ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglardan yuqori darajadagi ijodiy yondashuvni talab qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, “Kreativ pedagogika” fani an’anaviy pedagogik tafakkur doirasidan chiqib, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga yo’naltirilgan innovatsion g’oyalarni ilgari surish, mavjud ta’limiy muammolarga yangicha va konstruktiv yechimlar topish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bosh miyaning morfologik va funksional xususiyatlarini chuqur o’rganishga asoslangan neyropedagogika fani bo’lajak o’qituvchilarni ta’limiy jarayonga yangi nuqtai nazardan qarashga, an’anaviy yondashuvlardan chekinishga va tafakkurning turli shakllarini tahlil qilish orqali innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etishga undaydi. Ushbu yondashuv bo’lajak o’qituvchilarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro’yobga chiqarishda muhim omil sifatida namoyon bo’ladi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Intellektual kompetentlikni rivojlantirish tizimi

Neyropedagogika fani emotsional va hissiy holatlarning intellektual kompetensiyani shakllantirishdagi muhim roliga alohida urg’u beradi. Emotsional komponentlar bo’lajak o’qituvchining fikrlash jarayoni va ijodiy salohiyatini faollashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo’ladi. Ayniqsa, bo’lajak o’qituvchilarda hissiy va emotsional faollikni rag’batlantirishda ijodiy yo’naltirilgan topshiriqlar muhim metodik vosita bo’lib xizmat qildi.

Shuningdek, ushbu bobda “Kreativ pedagogika” va “Neyropedagogika” fanlari kontekstida bo’lajak o’qituvchilarning intellektual kompetentligini rivojlantirishga



yo‘naltirilgan didaktik imkoniyatlari tizimli o‘rganildi va ularni amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlari va yo‘nalishlarini ishlab chiqishga e‘tibor qaratildi. Bunda intellektual kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatining o‘svuchan xususiyati, ta‘limning shaxsga va bilimga yo‘naltirilgan mazmunga xos tamoyillari illyustrativ, reproduktiv, produktiv metodlar yordamida amalga oshirildi.

Ushbu fanlari mazmunini o‘zaro uyg‘unlashtirish asosida tuzilgan quyidagi integratsiyalashgan taqvim-mavzu rejasi har ikki fan doirasidagi nazariy bilimlar va amaliy yondashuvlarni birlashtiradi. Quyidagi jadvalda har bir mavzuning mazmuni hamda unga mos zamonaviy ta‘lim texnologiyalari va metodlari tizimli tarzda keltirilgan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

“Neyropedagogika” va “Kreativ pedagogika” fanlarining o‘quv dasturida berilgan taqvim mavzu-rejalarini integratsiyalashtirilgan jadvali

№	Mavzular	Mazmun	Ta‘lim texnologiyalari va metodlari
1.	Kognitiv neyrologiya: miya va ta‘lim	Miya tuzilishi va funksiyalari, o‘rganish jarayoniga ta‘siri, kognitiv neyrologiyaning ta‘limga oid asosiy tushunchalari.	Muammoli ma‘ruza, hikoyalash (Storytelling) metodi, xotira saroyi metodi
2.	O‘quvchilarning neyropedagogik xususiyatlarini diagnostika qilish	Neyropedagogik xususiyatlar va ularni aniqlash metodlari, testlar va sun‘iy intellekt vositalari asosida tahlil.	Diagnostik karta, test, kuzatuv
3.	Ta‘lim berishning neyropedagogik texnologiyalari	Miya plastiklik xususiyatlariga mos ta‘lim texnologiyalari, neyro asosli metodikalar.	Sun‘iy intellekt yordamida o‘qitish (AI-assisted learning) metodi, Mozaika metodi,
4.	Kreativlik muammosiga zamonaviy yondashuvlar	Kreativlik tushunchasi, zamonaviy baholash mezonlari, pedagogik yondashuvlar.	Kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi transformatsiya usuli (SCAMPER) metodi, aqliy hujum, ijodiy muammolarni hal qilish
5.	Kreativlik o‘qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim xususiyati sifatida	Kreativ kompetensiya innovatsion faoliyatdagi o‘rni, o‘qituvchining ijodiy roli.	Dizayn fikrlash (Design Thinking) metodi, loyiha usuli, muammoli vaziyatlar
6.	Kreativ kompetensiya mezonlari va darajalari	Kreativ kompetensiyani rivojlantirish omillari, tendensiyalar va nazariy asoslar.	O‘zaro o‘qitish (Peer instruction) metodi, guruhli tahlil, kompetensiyaga asoslangan yondashuv
7.	O‘qituvchi modelining umumiy xususiyatlari	Kognitiv, ijtimoiy-emotsional, reflektiv xususiyatlar tahlili.	Muammoli o‘qitish, rolli o‘yinlar, klaster metodi
8.	Kreativ psixologik-pedagogik texnologiyalar	Kreativlikni oshirishga qaratilgan texnologiyalar va innovatsion ta‘lim yondashuvlari.	Olti fikrlash qalpoqlari (Six Thinking hats) metodi, klaster, interfaol dars metodlari

9.	O'quv jarayonini tashkil etishning progressiv ta'lim modellari	Zamonaviy, interfaol va individual yondashuvga asoslangan ta'lim modellarining tahlili.	Aralash o'qitish (Blended learning) metodi, Mozaika (Jigsaw) metodi
10.	Art-kreativ metodlar	San'at elementlariga asoslangan pedagogika, tasviriy va dramatik ijod metodlari.	Art-kreativ yondashuv, dramatisatsiya, tasviriy mashqlar
	Online platforma	 @intellektualpedagog	 https://www.youtube.com/@rustamurinov8716

Shuningdek, “**Neyropedagogika**” fani doirasida **Mozaika (Jigsaw)** metodi ham bo'lajak o'qituvchilarning bilim olish jarayonini optimallashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini, intellektual kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda.

Ushbu metod orqali bo'lajak o'qituvchilar kognitiv neyrologiya va ta'lim jarayoni o'rtasidagi bog'liqlikni tushunib yetadilar. Miya faoliyatining o'quv jarayoniga ta'siri, nevrologik jarayonlarning ta'lim samaradorligiga qanday ta'sir qilishi haqida chuqur tushunchaga ega bo'ladilar. Shuningdek, jamoaviy faoliyat orqali talabalarning mustaqil fikrlash, muloqot va tahliliy yondashuv ko'nikmalari rivojlanadi. Bu metod yordamida talabalar o'z individual o'quv strategiyalarini shakllantirish, neyroplastiklik tamoyillarini tushunish va ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ushbu metodni amalga oshirish bosqichlari:

Talabalar 4-5 kishilik kichik guruhlariga bo'linadi.

Har bir guruhga mavzuning alohida jihatlari bo'yicha materiallar taqdim etiladi.

Har bir guruh a'zosi o'ziga ajratilgan bo'limni mustaqil o'rganadi.

Keyin har bir guruh a'zolari aralashib, yangi guruhlar tashkil qiladi va o'z bo'limi bo'yicha boshqalarga tushuntiradi.

So'ngra barcha talabalar asosiy g'oyalarni umumlashtirib, xulosa chiqaradilar.

“**Kreativ pedagogika**” fani doirasida esa bo'lajak o'qituvchining puxta bilim egallashi, mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi hamda neyrobilimga asoslangan tushunchalarni shakllantirish maqsadida **Dizayn fikrlash (Design Thinking)** metodidan ham foydalanildi.

Ushbu metod bo'lajak o'qituvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shaxsiy o'rganish usullarini aniqlash va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, kognitiv neyrologiyaning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini tushuntirish, miyaning o'rganish jarayonidagi faoliyatini anglash hamda bu bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Ushbu metod orqali ilg'or ta'lim metodlarini ishlab chiqish, mustaqil fikrlash va innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Ushbu metodni amalga oshirish bosqichlari:

Metod besh bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab, talabalar kichik guruhlariga ajratilib, o'z ta'lim jarayonidagi yuzaga keladigan muammolarni muhokama qiladilar. Keyingi bosqichda o'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda miyadagi

o'rganish jarayonlari haqida ma'lumot beradi. So'ngra talabalar samarali o'rganish usullari bo'yicha g'oyalar ishlab chiqib, o'qituvchi ko'magi bilan o'z takliflarini asoslaydilar. Keyingi bosqichda har bir guruh o'z g'oyalarini taqdimot shaklida ifodalaydi, bu jarayon vizual tasvirlar yoki qisqa drammatizatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Yakuniy bosqichda esa guruhlar o'zaro fikr almashib, eng samarali usullarni aniqlaydilar, o'qituvchi esa natijalarni umumlashtirib, ilmiy asoslar bilan mustahkamlash orqali darsni yakunlaydi.

Natijaviy jihatdan, ushbu ikki metodning uyg'unligi bo'lajak o'qituvchilarning intellektual kompetentligi tarkibiy qismlarini (gnostik, reflektiv, prognostik, loyihaviy) faol rivojlantirishda muhim o'rin egalladi hamda pedagogik faoliyatda zarur bo'lgan mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlash salohiyatini shakllantirishga xizmat qildi.

Ta'lim texnologiyalari tizimida ta'lim jarayonining tashkiliy-pedagogik asoslari, mazmuni, qo'llaniladigan metodik yondashuvlarni optimal tarzda taqdim etish uchun uning pedagogik modeli va uni ta'lim amaliyotiga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish quyidagi komponentlar asosida amalga oshiriladi:

Tadqiqotda taklif etilgan ta'limdagi bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik modeli to'rtta blokdan tashkil topdi: maqsadli komponent; jarayonli-mazmunli komponent; tashkiliy-faoliyatga yo'naltirilgan komponent; diagnostik komponent.


Maqsadli komponentda ijtimoiy buyurtma sifatida huquqiy me'yoriy manbalar asos qilib olindi.

Jarayonli-mazmunli komponent o'rganilayotgan pedagogik-psixologik ko'rsatkichlar asosida shakllanib, tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish kreativ va neyropedagogik nazariy-metodik yondashuvlardan foydalanish bilan bevosita bog'liqligini tasdiqladi.

Tashkiliy-faoliyatga yo'naltirilgan komponent kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar asosida qurilgan bo'lib, bunda bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish bosqichlari, turlari hamda jarayonga ijobiy ta'sir qiladigan omillarini o'z ichiga oladi. Tadqiqot davomida ayon bo'ldiki, ta'limdagi bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishda nazariy mazmundagi hamda amaliy yo'nalishdagi materiallar vositasida intellektual salohiyatni yuksaltirishda ijobiy natijaga erishiladi.

Modelning diagnostik komponenti natijaviylik funksiyani bajaradi va tadqiqotning amaliy jihatini tavsiflab, pedagogik tajriba-sinov bosqichlari, baholash mezonini va intellektual kompetentlikni rivojlanganlik darajalarini aks ettiradi.

Shunga ko'ra, tadqiqot muammosining yechimini topish davomida innovatsion ta'lim muhiti sharoitida yuqorida keltirilgan metodika asosida tashkil etiladigan ta'lim jarayonining mazmunini o'zida qamrab olgan hamda bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish modeli

Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlanganlik darajasi quyidagi mezonlar (yuqori-ijodiy, o'rta-produktiv va past-reproduktiv) asosida aniqlanildi. Ushbu mezonlarni quyidagi jadvalda keltirib o'tilgan (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlanganlik darajasi mezonlari

№	Daraja	Darajalar bo'yicha tavsiflar
1.	Yuqori-ijodiy daraja	Mavjud bilimlarni tahlil qilish, baholash va yangi xulosalar chiqarish, murakkab masalalarni ijodiy usullar bilan yechish, alternativ to'g'ri yo'llar izlash, yangi g'oyalar, konsepsiyalar va ishlanmalar yaratish qobiliyati, yuksak mantiqiy tafakkur orqali muammolarni hal qilishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllanganligini anglatadi.
2.	O'rta-produktiv daraja	Mavjud bilimlarni tahlil qiladi va baholaydi, biroq yangi xulosalar chiqarishda qiynaladi, murakkab masalalarni ijodiy usullar bilan yechadi, alternativ to'g'ri yo'llar izlaydi, biroq yangi g'oyalar, konsepsiyalar va ishlanmalar yaratishga qiynaladi, yuksak fikrlash asosida muammolarni hal qilishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllanganligini anglatadi.
3.	Past-reproduktiv daraja	Mavjud bilimlarni tahlil qilish, baholash va yangi xulosalar chiqarish darajasining pasligi va rivojlanmaganligi, murakkab masalalarni ijodiy usullar bilan yechish, alternativ to'g'ri yo'llar izlash, yangi g'oyalar, konsepsiyalar va ishlanmalar yaratish qobiliyatining shakllanmaganligi, yuksak mantiqiy tafakkur orqali muammolarni hal qilishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni quyi darajada shakllanganligini anglatadi.

Bugungi zamonaviy pedagogik jarayon sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-metodik muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur holatni e'tiborga olgan holda, olib borilgan tadqiqot doirasida intellektual kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Intellektual ko'nikmalarni rivojlantirish" texnologiyasi asosidagi metodikani ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuv taklif etildi.

"Intellektual ko'nikmalarni rivojlantirish" texnologiyasining harakatlar strategiyasi asosan uch qismdan iborat bo'ladi:

I. "**Fundamental bosqich**"ni tashkillashtirishda an'anaviy ta'lim jarayoni asos qilib olinadi.

II. "**Dinamik bosqich**"ga oid tadqiqotlar ham o'ziga xos dinamik tizimni ifodalaydi. Undagi intellektuallashtirilgan bilimdan unga asoslangan ko'nikmaga va malakalarni shakllantirishlarga o'tishlar ham tadqiqot davomidagi uzviylik hamda uzluksizlikni talab etadi. Bular esa o'rganilayotgan jarayonni monitoring qilib borishni ham talab etadi.

